

DAVLAT BYUDETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA  
SOLIQLARNING AHAMIYATI

*Sh.A.Shoimov*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada davlat byudjetinig mohiyati va uni daromadlarini samarali shakllantirish tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet, davlat byudjeti, davlat byudjeti daromadlari, soliqlar.

THE IMPORTANCE OF TAXES IN THE FORMATION OF STATE  
BUDGET REVENUES

Sh.A.Shoimov

Master's student of Banking and Finance Academy of Uzbekistan

**Annotation:** this article examines the essence of the state budget and the issues of effective formation and organization of its income.

**Keywords:** budget, state budget, state budget revenues, taxes.

**Kirish**

Mamlakatimizda barcha sohadagi islohotlar qatori iqtisodiy islohotlar ham bugungi kunga kelib keng ko'lamda o'z samarasini ko'rsatayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Misol tariqasida aytish mumkinki, bugungi kunda davlat moliyasi, jumladan davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar ochiqligi hamda shaffofliginini ta'minlash, xalq byudjetini shakllantirish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi.

Davlat byudjetiga mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozorida raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirishning asosiy moliyaviy manbalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili**

Davlat byudjetining mazmunini yoritishga turli davr va turli yo'nalishdagi iqtisodiy maktablar iqtisodchi olimlari turlicha yondoshganlar. Masalan, yuqorida nomi keltirilgan o'quv qo'llanmada "Davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo'shilishini tushunmoq kerak: birinchisi davlat miqyosida yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar (iqtisodiy kategoriya) va ikkinchisi shu kategoriyaning namoyon bo'lish

shakli sifatida davlatning asosiy moliyaviy rejasi”<sup>1</sup> -deb izohlangan.

Mahalliy olimlarimizdan bir guruhi davlat byudjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Davlat byudjetining turli belgilari va xususiyatlarining yuqorida bayon qilingan tavsiflariga tayangan holda, uning mohiyatini aniqlab beruvchi quyidagi ta'rifni berish mumkin: davlat byudjeti - umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'plangan va uni jamiyat taraqqiyoti turli sohalarining rivojlanishiga sarflanadigan moliyaviy resursligi qayd etishgan<sup>2</sup>.

Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari uning shakli, moddiy mazmuni va mohiyatida namoyon bo'ladi.

Shakl jihatidan, davlat byudjeti - bu davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo'lib, unda byudjet pul munosabatlari tizimi sifatida miqdor jihatidan ifodalanadi. Binobarin, aynan byudjet rejasi mamlakatning muhim moliyaviy hujjati sifatida tuziladi, ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. Unda pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga doir iqtisodiy munosabatlar aks etadi.

Moddiy mazmun jihatidan, davlat byudjeti - davlatning byudjet rejasini ijro etish jarayonida tashkil topadigan va foydalaniladigan asosiy markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasidir.

Mohiyat jihatidan, davlat byudjeti - davlat boshqaruvining muhim vositasi bo'lib, uning yordamida davlat takror ishlab chikarish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, inson irodasiga buysunmaydigan bozor kuchlarining salbiy ta'sirini bartaraf etadi.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti - bu davlatning vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va sarflashning qonun bilan belgilangan shaklidir. Byudjet huquqiy akt shakliga ega bo'lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va shu sababdan qonuniy kuchga egadir<sup>3</sup>.

Davlat byudjeti mamlakatning moliya tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali uning yordamida katta hajmdagi moliyaviy resurslar davlatning qo'lida to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi.

Har qanday iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy bo'linmasi hamda

<sup>1</sup> Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007. 5- bet.

<sup>2</sup> Malikov T.S., Olimjonov O.O., Jalilov Sh.K., Qobulov X.A., Sherov A.B. Moliya (1-modul). Elektron darslik. –T.: TMI, 2021.

<sup>3</sup> Nurmuxamedova B.I., Xamdorov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2021

byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangani uchun ularga pul shakli xosdir va ular taqsimlash, qayta taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajaradi<sup>4</sup>.

Byudjet daromadlariga professorlar T.S.Malikov va N.X.Haydarovlar quyidagicha ta'riflaganlar: "Pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi byudjet daromadlari deyiladi"<sup>5</sup>.

Eng avvalo, davlat byudjetining daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi<sup>6</sup>:

- solikli daromadlar;
- nosolikli daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Davlat byudjetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni byudjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin. Davlat byudjeti daromadlari davlatning markazlashtirilgan moliyaviy mablag'lari bir qismidan iborat bo'lib, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi. Byudjet mablag'lari asosan byudjet daromadlari sifatida namoyon bo'ladi. Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromad<sup>7</sup>.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ahamiyatini o'rganishda analiz, sintez, tanlanma kuzatuv, qiyoslash, statistik tahlil, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat byudjeti ular milliy daromadini qayta taqsimlashning asosiy instrumentidir. Moliyaviy tizimning bu bo'g'ini orqali mamlakat MDining 40% gacha bo'lgan qismi qayta taqsimlanadi.

Davlat byudjetining asosiy daromadlari soliqlardan iborat bo'lib, ular yordamida byudjet daromadlarining 70% dan 90% gacha va ayrim davrlarda undan ham ko'proq qismi shakllantiriladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda asosiy soliqlar hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i,

<sup>4</sup> Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. T.: infoCOM.UZ MChJ, 2010 y., 11-bet.

<sup>5</sup> Malikov T., Haydarov N. Byudjet daromadlari va xarajatlari. –T.: "Iqtisod-moliya", 2007 y., 9-bet


<sup>6</sup> Malikov T., Haydarov N. Davlat byudjeti. –T.: "Iqtisod-moliya", 2007 y., 31-bet

<sup>7</sup> Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O.,quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2018.

korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq, aktsizlar, qoʻshilgan qiymat soligʻi va bojxona bojlari davlat byudjetiga birlashtirilgan.

1-rasm

2021-2023 yillarda soliq yuki va davlat byudjeti daromadlari <sup>8</sup>



2022-yilda Davlat budjeti daromadlari 202 trln. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 37,2 trln. so'mga yoki 22,6 foizga oshdi.<sup>9</sup>

Jumladan, Soliq qoʻmitasi ma'murchiligidagi tushumlar 148 trln so'mni Bojxona qoʻmitasi bo'yicha tushumlar 46,0 trln so'mni hamda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 7,6 trln so'mni (qoʻshilgan qiymat soligʻi bo'yicha qaytarish (qoplab berish) (19,3 trln so'm) va fuqarolarga xarid summasidan 1% (“kesh-bek”) qaytarishni (0,8 trln so'm) hisobga olgan holda ) tashkil qildi.

Daromadlarning asosiy qismini bilvosita soliqlar 72 trln so'mni yoki Davlat byudjeti umumiy daromadlarining 35 foizini tashkil qildi. 2021-yilga nisbatan 15,1 trln so'mga yoki 27 foizga oshdi.

2023 yulda davlat byudjeti solikli daromadlari tarkibida foyda soligi va qoʻshilgan qiymat soligʻining ulushi etakchi boʻlgan (1-jadval).

<sup>8</sup> "Fuqarolar uchun byudjet: 2023 yil uchun tasdiqlangan byudjet" axborot nashri BMT taraqqiyot dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi "O'zbekistonda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" qo'shma loyihasini amalga oshirish dasturi doirasida tayyorlangan. [https://api.mf.uz/media/document\\_files/Budjet\\_23\\_uz.pdf](https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_23_uz.pdf)

<sup>9</sup> “2022-yildagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy saytidan. <https://www.imv.uz/events/category/tadbirlar-3/post-1330>

2023 yilda davlat byudjetining solikli daromdlari tarkibi <sup>10</sup>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'idan byudjetga

(mlrd.so'm)

№	Soliq turlari	2024-yil 1-yanvar holatiga tushum	Ulushi (foiz)
	<b>Budjetga tushumlar, jami</b>	<b>165 918</b>	<b>100</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	33 983	20,5
2	Aksiz solig'i	15 133	9,1
3	Foyda solig'i	40 779	24,6
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	29 518	17,8
5	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15 300	9,2
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	791	0,5
7	Mol-mulk solig'i	5 098	3,1
8	Yer solig'i	6 890	4,2
9	Aylanmadan olinadigan soliq	2 407	1,5
10	Davlat boji va jarimalar	4 856	2,9
11	Boshqa tushumlar va yig'imlar	11 161	6,7

2023 yilda 33 983 mlrd. so'm tushgan bo'lib, bu byudjetning 20,5 foizini tashkil qilgan. Mos ravishda, foyda solig'idan 40 779 mlrd. so'm tushgan bo'lib, bu byudjetning 24,6 foizini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan 29 518 mlrd. so'm tushgan bo'lib, bu byudjetning 17,8 foizini tashkil qilgan.

<sup>10</sup> [000000008e7f54a3018e8f37d3c60010.pdf](http://000000008e7f54a3018e8f37d3c60010.pdf) (soliq.uz)

Madomiki, respublikamizda davlat bosh islohatchiligi hamda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash eng asosiy vazifalardan deb belgilangan ekan, o'z navbatida iqtisodiyotni boshqarishning ta'sirchan dastagi hisoblangan davlat byudjeti mablag'lari doimo aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunda, albatta, byudjet-soliq siyosatni ishlab chiqish va to'g'ri yuritish, byudjet mablag'laridan samarali va oqilona foydalanish talab etiladi. Chunki, byudjet ko'zda tutilgantadbirlar va dasturlarni aniq va o'z vaqtida moliyalashtirilishi ayni paytda

davlat dasturlarining ham pirovard natijada to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Shu bilan birga, hududiy boshqaruv organlarining byudjet mablag'larini shakllantirish, qo'shimcha zaxiralarni yaratish bo'yicha soliq, moliya va iqtisodiyot sohalari organlarining mas'uliyatini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Biz mamlakatimiz byudjet tizimini qayta ko'rib chiqishimiz, byudjet daromadlari va xarajatlari xalqimiz uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlashimiz zarur<sup>11</sup>".

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat byudjetini takomillashtirish sohasida olib borilayotgan islohotlarning markaziy bo'g'inida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va xarajatlaridan yanada samarali foydalanish, iqtisodiyotda soliq yukini maqbullashtirish va soliqlarning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tutgan o'rnini oshirish, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish masalalari turadi.

Hozirgi vaqtga kelib respublikamizda bir qadar samarali byudjet tizimi shakllantirilgan bo'lsada, bu borada ayrim muammolar ham mavjudki, bu holat byudjetizimini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Byudjet daromadlarini samarali shakllantirish, byudjetdan xarajatlarni amalga oshirishda byudjet mablag'laridan samarali va oqilona foydalanish muammosi hamisha dolzarb masala bo'lib kelgan va hozirgi sharoitda ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishning naqadar muhimligini yanada aniqroq ko'rsatib beradi.

Shuningdek, soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning yana bir ahamiyati byudjetdan qilinadigan ijtimoiy-madaniy tadbirlar, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish, iqtisodiy tarmoqlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, hokimiyat, boshqaruv va sud organlari hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash, malakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish uchun mablag'lar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Soliq yig'iluvchanligining tadqiq etish asosida soliq yig'iluvchanligi darajasini quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiqdir: soliq yig'iluvchanligi darajasi – bu moliya yilida hisoblangan soliqlar evaziga kelib tushgan soliq tushumlarining ushbu

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz>. 22.12.2017 y.



davrda hisoblangan soliq majburiyatlariga nisbati orqali ifodalanadigan ko'rsatkichdir.

Bunda soliq yig'iluvchanligi darajasini hisoblashda soliqlar bo'yicha qo'llanilgan jarima va hisoblangan penyalar hisobga olinmagan. Shuning uchun ham ushbu ko'rsatkichni sof soliq yig'iluvchanligi sifatida baholash mumkin. Agar soliq yig'iluvchanligini hisoblashda soliqlar bo'yicha qo'llanilgan jarima va hisoblangan penyalar inobatga olinsa, ushbu ko'rsatkichni yalpi soliq yig'iluvchanligi ko'rsatkichi sifatida ta'riflash maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida majburiy to'lovlar hatto, 2012 yildan boshlab, davlat bojlarining to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida undirilishini nazorat qilish soliq idoralariga yuklatilganligi inobatga olinadigan bo'lsa, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha tushgan jami tushumlar, ular bo'yicha hisoblangan jami majburiyatlar (shu jumladan, penya va moliyaviy jarimalar) nisbatini topish orqali soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha jamlanma yig'iluvchanlik darajasini aniqlash mumkin.

Soliq tushumlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga asoslangan soliq potentsialini baholash usullaridan foydalangan holda, hududning soliq potentsialini aniqlash hisobiga mazkur hududda soliq tushumlari reja ko'rsatkichlarining belgilanishi, bu esa, respublikamiz hududlarida soliq yig'iluvchanligining oshishiga xizmat qiladi.

Davlat soliq xizmati idoralari hisoblangan va undirilgan soliq tushumlari bo'yicha to'laqonli ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lsa, soliq potentsialini aniqlash ancha osonlashadi. Zero, joriy davrdagi soliq potentsiali deganda, soliq to'lovchilarning hudud bo'yicha soliq majburiyatlari yig'indisini aks ettiruvchi miqdor tushuniladi, ya'ni nazariy jihatdan hudud soliq potentsiali summasi byudjetga hisoblangan soliq to'lovlari summasiga teng bo'lishi kerak.

### **Xulosa**

Davlat byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi bo'lgan soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirib borishda, eng avvalo, mamlakat soliq siyosatini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. Uning asosiy shartlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va alohida tarmoqlaridagi sub'ektlarning rivojlanishini, yalpi ishlab chiqarishning o'sishini va soliq yukining iqtisodiyotga hamda soliq to'lovchilarga ta'siri doirasini mukammal tahlil qilish kabilar xizmat qiladi.

Soliq stavkasining o'sishi faqatgina ma'lum darajaga yetgunicha byudjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari byudjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib soliq stavkasi ma'lum darajaga yetganida tadbirkorlik tashabbusi o'ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni "qonuniy" sektoridan "yashirin" sektoriga o'tadi.

Ushbu tadqiqot ishimizda tahlil qilingan yillar davomida respublika byudjetining daromadlar qismiga tegishli bo'lgan bashorat ko'rsatkichlari asosiy soliq turlari

bo'yicha bajarilayotgan bo'lsa-da, lekin bu narsa jada katta mehnat va mashaqqatlar evaziga erishyotganligini inobatga olish lozim. Bu esa o'z navbatida soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash mexanizmida tegishli nuqson va kamchiliklarning borligidan dalolat beradi.

Biz ushbu kamchilik va nuqsonlarni umumlashtirib quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'implarni byudjetga yillarning choraklari bo'yicha undirilish rejalarining haqiqiy hisob-kitoblarga yetarli darajada asoslanmasdan tuzilayotganligida, rejalarni tuzishda yillarning ayrim choraklari bo'yicha reja ko'rsatkichlarining pasaytirib, va aksincha ayrim choraklarida teskari ya'ni ko'paytirib tuzilayotganligida;

- byudjetga undirilishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'implarning barcha hollarda ham soliq to'lovchilarga tushunarli emasligi, soliqlar va yig'implarni byudjetga undirish jarayonida soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliq yukining ular o'rtasida amalda bir tekis taqsimlanganligi, soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turishga harakat qilayotgan soliq to'lovchilar uchun soliq yukining og'irligi hamda soliqlar to'lashdan turli yo'llar va vositalarni qo'llash evaziga bo'yin tortayotganlar uchun soliq yukini sezilarli emasligi;

- ko'pchilik hollarda hech bir ob'ektiv sabablarni va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ayanchli iqtisodiy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarini oldingi o'ringa qo'yilishi hamda soliq undiruvchilarda o'z faoliyati natijalaridan moddiy manfaatdor bo'lishlikni yetarli darajada shakllanmaganligi;

- soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turmasdan moliya-byudjet to'lov intizomiga rioya qilmaslik hollarining nisbatan yuqori darajada ekanligi;

- soliqlarni byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda undirilishini ta'minlovchi mexanizmning yetarli darajada takomillashmaganligi, amalda ushbu mexanizmning barcha holatlarda ham yetarli darajada oddiy va sodda emasligi.

O'ylaymizki, yaqin yillarda davlat byudjetiga soliqlarni o'z vaqtida tushishini ta'minlash va ularning yig'iluvchanligini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida mazkur kamchiliklarga barham beriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz>. 22.12.2017 y.
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar.O'quv qo'llanma.T.:“IQTISOD-MOLIYA” 2008 y. 316 b.



4. Vaxabov AV, Tashmatov SA, Xaydarov NX, Vaxabov AV. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma/-Toshkent.
5. Malikov T.S., Olimjonov O.O., Jalilov Sh.K., Qobulov X.A., Sherov A.B. Moliya (1-modul). Elektron darslik. –T.: TMI, 2021.
6. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
7. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
8. Маликов ТС. Хайдаров НХ. “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
9. Маликов Т. Молия: умумназарий масалалар. Ўқув қўлланма. Тошкент,“Iqtisod-moliya. 2008.
10. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O,,quv qo,,llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018.
11. Nurmuxamedova B.I., Xamdamov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2021
12. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. T.: infoCOM.UZ MChJ, 2010 y.,
13. Ўроқов У. Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.“ 2017 й.
14. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.“(2017)
15. Ғайбуллаев О ЎУ. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.–21 б. 2016.
16. [https://api.mf.uz/media/document\\_files/Budjet\\_23\\_uz.pdf](https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_23_uz.pdf)
17. <https://www.imv.uz/events/category/tadbirlar-3/post-1330>
18. 000000008e7f54a3018e8f37d3c60010.pdf (solliq.uz)